

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PENSIYA TIZIMINING O'ZIGA XOSLIGI*Majidova Mohinur Ulash qizi**O'zbekiston Respublikasi Bank – Moliya Akademiyasi magestiri**mohinurxonmajidova90@gmail.com***ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolamda yurtimizdagi pensiya tizimida olib borilayotgan o'zgarishlar so'nggi yillarda qabul qilingan qonunlar va qonun osti hijjatlari, bu o'zgarishlarning nechog'lik yaxshi tomonga o'sayotganini ko'rishimiz mumkin maqolamda aynan shu tizimning afzalliklarini yoritib o'tganman.

Kalit so'zlar: pensiya tizimi, nafaqalar, boquvchisini yo'qotganlik nafaqasi, najburiy va ixtiyoriy pensiya tizimi, minimal pensiya, yaratish rejasini, uch bosqichli pensiya tizimi.

Yangi tizim yaratish rejasida uch bosqichli pensiya tizimiga o'tish, minimal pensiya miqdorlarini bosqichma-bosqich oshirib borish, minimal ish stajini bajargan fuqarolarga kafolatlangan pensiya miqdorini ta'minlab berish, pensiya hisoblashda inobatga olinadigan daromadning yuqori chegarasini bosqichma-bosqich oshirib borish ko'zda tutilmoqda.

Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining ijro etuvchi direktori Abdulaziz Haydarov 29 yanvar kuni AOKAda bo'lgan matbuot anjumanida yangi pensiya konsepsiyasi loyihasida tizimga kiritilishi kutilayotgan o'zgarishlar haqida gapirdi.

O'zimizga xos pensiya tizimi yaratish ustida ishlayapmiz. Boshqa davlatlardan ko'p andoza olmaymiz. Asosiy kutilayotgan o'zgarishlardan biri: 3 bosqichli pensiya tizimiga o'tishni maqsad qilib qo'yganmiz. Keyingi o'zgarish – minimal pensiya miqdorlarini bosqichma-bosqich oshirib borish. Bugungi kunda minimal pensiya miqdori kamroq. Yangi tizimga o'tsak bu, albatta, oshadi», – dedi u.

2020 yil 1 sentyabr holatiga ko'ra, pensiya hisoblashning bazaviy miqdori 262 ming 470 so'm etib belgilangan. Ushbu summa pensiyalar, ustamalar, qo'shimcha to'lovlar va pensiya ta'minoti sohasidagi, shuningdek, mehnat majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq holda xodimlarning mayib bo'lishi, kasb kasalliklariga chalinishi yoki sog'lig'iga boshqacha tarzda shikast yetkazilganda zararni qoplash uchun kompensatsiyalarni hisoblashda qo'llaniladi. Jamg'arma ijrochi direktorining aytishicha, minimal ish stajini bajargan fuqarolarga kafolatlangan pensiya miqdorini ta'minlab berish masalasi o'rganilmoqda.

«Yana bir o'zgarish – pensiya hisoblashda inobatga olinadigan daromadning yuqori chegarasini bosqichma-bosqich oshirib borish. Bunda yuqori chegara 10ta minimal ish haqi qilib belgilangan. Buni ham o'rganyapmiz», – deya qayd etdi u.

2019 yili «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi qonun 31 moddasiga («O'rtacha oylik ish haqini aniqlashning umumiy tartibi») o'zgartish kiritilib, pensiyani hisob-kitob qilish uchun eng kam oylik ish haqining o'n barobaridan ortiq bo'lmagan miqdordagi o'rtacha oylik ish haqi olinishi belgilangan edi. Endilikda ushbu chegara yana pensionerlar manfaati uchun o'zgartirilishi mumkin.

Bundan tashqari, ish staji talablarini bajargan fuqarolarga muddatdan oldin pensiyaga chiqish masalasini ham ko'rib chiqilishi aytili.

«Lekin pensiya yoshini o'zgartirish masalasi bizning kun tartibimizda yo'q. Bu haqda hech qanaqa masala qo'yilmagan», – dedi direktor.

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019 yil 21 noyabr kuni o'tkazilgan yig'ilishda Moliya vazirligiga 2020 yil 1 aprelga qadar tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda pensiya tizimini isloh qilish konsepsiyasini ishlab chiqish vazifasi yuklatilgandi.

O'tgan yili jamg'arma nufuzli xalqaro moliya tashkilotlari, xususan, Jahon banki, BMT Taraqqiyot dasturi va Rossiya Federatsiyasi Moliya vazirligining ilmiy tadqiqotlar instituti ekspertlarini jalb qilgan holda xorijiy mamlakatlarda pensiya ta'minotini, shu jumladan 3 bosqichli pensiya tizimini tashkil qilish tajribalarini o'rganayotgani xabar qilingan.

2023 yil 20 noyabr kuni Qonunchilik palatasidagi Xalq demokratik partiyasi fraksiyasining navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi. «2024 yil uchun davlat budjeti to'g'risida»gi qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Mazkur hujjat 2024 yil uchun O'zbekiston budjetini shakllantirish va ijro etish bilan bog'liq masalalarni qamrab olgan. Konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligi 2024 yilda yalpi ichki mahsulotga nisbatan 4 foiz etib belgilangan bo'lib, 2025-2026 yillarda bu ko'rsatkichni 3 foizdan oshirmaslik nazarda tutilmoqda.

Davlat budjetida ijtimoiy sohaga yana bir qator muhim xarajatlar ko'zda tutilmoqda. Kam ta'minlangan oilalarga bolalar nafaqalari va moddiy yordamlar to'lash uchun 10 trln so'mdan ortiq, nogironligi bo'lgan bolalarni parvarishlayotgan onalarga nafaqalar to'lash uchun 3,6 trln so'mdan ortiq, mehnatga layoqatsiz va zarur ish stajiga ega bo'lmagan fuqarolarga nafaqalar uchun esa 2,5 trln so'mdan ortiq mablag' ajratilishi rejalashtirilmoqda. 2023 yil 20 noyabr kuni Qonunchilik palatasidagi Xalq demokratik partiyasi fraksiyasining navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi. «2024 yil uchun davlat budjeti to'g'risida»gi qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Mazkur hujjat 2024 yil uchun O'zbekiston budjetini shakllantirish va ijro etish bilan bog'liq masalalarni qamrab olgan. Konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligi 2024 yilda

yalpi ichki mahsulotga nisbatan 4 foiz etib belgilangan bo‘lib, 2025-2026 yillarda bu ko‘rsatkichni 3 foizdan oshirmaslik nazarda tutilmoqda. Davlat budjetida ijtimoiy sohaga yana bir qator muhim xarajatlar ko‘zda tutilmoqda. Kam ta‘minlangan oilalarga bolalar nafaqalari va moddiy yordamlar to‘lash uchun 10 trln so‘mdan ortiq, nogironligi bo‘lgan bolalarni parvarishlayotgan onalarga nafaqalar to‘lash uchun 3,6 trln so‘mdan ortiq, mehnatga layoqatsiz va zarur ish stajiga ega bo‘lmagan fuqarolarga nafaqalar uchun esa 2,5 trln so‘mdan ortiq mablag‘ ajratilishi rejalashtirilmoqda. Stipendiyalar miqdori oshirilishi rejalashtirilmoqda

O‘zbekistonda 2024-yilda davlat budjetining ish haqi, pensiyalar, stipendiya va nafaqalar miqdorini va ayrim xizmatlarning tariflarini oshirish bilan bog‘liq xarajatlari 9,6 trln so‘mni tashkil etadi. Umumiy hisobda ish haqi, pensiya va stipendiyalarga davlat budjeti xarajatlarining yarmidan ko‘pi yo‘naltiriladi. 2024-yilda O‘zbekiston davlat budjetining ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar, shuningdek, ayrim xizmatlar bo‘yicha tariflarni oshirish bilan bog‘liq xarajatlari 9,55 trln so‘mni tashkil etadi. Bu Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan e‘lon qilingan 2024–2026-yillarga mo‘ljallangan budjetnomada nazarda tutilgan. Joriy yilda ish haqi va pensiyalarni oshirishga 3,8 trln so‘m yo‘naltirish rejalashtirildi, lekin ularni indeksatsiya qilish uchun qo‘shimcha 2,6 trln so‘m (jami — 6,4 trln so‘m) yo‘naltirildi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma‘lumotlariga ko‘ra, ish haqini 1 foizga qo‘shimcha oshirish uchun yiliga qariyb 1,3 trln so‘m, pensiyalarni 1 foizga oshirish uchun esa yiliga 600 mlrd so‘m mablag‘ talab etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan pensiya ta‘minoti tizimini kompleks o‘rganish va uni rivojlantirish yuzasidan takliflar tayyorlash hamda 2019-2030 yillarda pensiya ta‘minoti tizimini isloh qilish Konsepsiyasini ishlab chiqish bo‘yicha Chora-tadbirlar dasturi qabul qilindi. Mazkur Dastur quyidagilarni o‘zi ichiga oladi:

1. Pensiya ta‘minoti tizimining joriy holatini o‘rganish, tahlil qilish va uni rivojlantirish bo‘yicha takliflar tayyorlash. Jahon banki, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi ekspertlari bilan hamkorlikda pensiya ta‘minoti tizimining asosiy kontseptul yo‘nalishlarini aniqlash.
2. Pensiya ta‘minoti tizimining samaradorligi va ijtimoiy adolatliligini oshirish masalalarini o‘rganish. Bunda:
 - aholining kam ta‘minlangan qatlami uchun ijtimoiy nafaqalar tayinlash me‘yorlari va standartlarini belgilash masalalarini qayta ko‘rib chiqish;
 - keksalarga va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga, shuningdek, davlat pensiyalarini tayinlash uchun zarur bo‘ladigan talab etiladigan mehnat stajiga ega bo‘lmagan shaxslarga pensiya (ijtimoiy nafaqa) tayinlash va to‘lashning amaldagi mexanizmlarini qayta ko‘rib chiqish;
 - imtiyozli pensiyalarni tayinlashdagi imtiyozlarni optimallashtirish bo‘yicha

- takliflar tayyorlash;
- ijtimoiy badal to'lovchilar qamrovining ko'lamini kengaytirish bo'yicha takliflar tayyorlash;
 - pensiya ta'minoti tizimi samaradorligini oshirish va ijtimoiy adolatni ta'minlash bo'yicha tahliliy material va takliflar tayyorlash.
3. Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimida rag'batlantiruvchi xarakterdagi mexanizmlarni o'rganish:
- fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimida uzoq muddatli va uzluksiz ishtirokini rag'batlantirish;
 - mehnat stajining davomiyligi va ish haqi miqdoriga bog'liq holda pensiya miqdorlarini oshirish (talab etilgan me'yorlardan yuqori darajada);
 - mehnat staji davomiyligini rag'batlantirish "xufyona iqtisodiyotdan chiqish";
 - mehnat migrantlari va norasmiy sektorni ijtimoiy sug'urta tizimiga jalb qilish yo'li bilan pensiya badallari to'lovchilar sonini tubdan kengaytirish bo'yicha takliflarni qayta ishlash va asoslash, to'lanayotgan pensiya badallarining shaffofligini ta'minlash kabilar kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'lmasov A, Vahobov A, Iqtisodiyot nazaryasi. Darslik SHarq. 2006 y
2. Kasimova G.A Ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishlari.
3. Mamatov B.S Pensiya jamg'armasi faoliyati. O'quv qo'llanma – T. "Barkamol fayz media" 2017 y
4. Mamatov .B.S Ijtimoiy ta'minot. O'quv qo'llanma – Toshkent "IQTISODIYOT MOLIYA" 2019 y
5. Tursunov J.P Pensiya hisoblashda mehnat stajining ta'siri va pensiya yoshini belgilashda xorij tajribasi. Tom 24 N6 (Экономика и образования)
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 - 2026" yillarda mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning tarraqiyot strategyasi to'g'risidagi"gi farmoni (qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi 21.04.2022) 06/22/ 113/0303 – son/
7. Jung Peng State and Local Pension Fund Management (Public Administration and Public Policy) 0th Edition USA Publeshir Auerbach Publications (August21 2008) – P.45